



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

**XORAZM VOHASIDA TARQALGAN COCHLICOPA NITENS
(GALLENSTEIN, 1852)
QURUQLIK MOLLYUSKASINING TARQALISH XUSUSIYATLARI VA
EKOLOGIYASI**

I. R. Avazmetova,
b.f.f.d.(PhD), dotsent, Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti, Urganch

G. Q. Nurmetova, magistr, Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Xorazm vohasida tarqalgan Cochlicopa nitens quruqlik mollyuskasining tarqalish xususiyatlari va ekologiyasi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Quruqlik mollyuska, biotop, tur, konxologik belgilar, reproduktiv organ,

Kirish

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida olib borilayotgan zoologik tadqiqotlar borasida faunistik izlanishlarga alohida etibor berilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri antropogen kuchlar ta'sirida atrof-muhitga bo'lgan tayziqining kuchayib borishi natijasida tabiiy ekosistemalarning o'zgarishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida u yerda yashayotgan hayvonot dunyosining populyatsiyasini o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun tabiiy ekosistemalar o'zgarishga uchuragan hududlarda yashovchi hayvonlarning tur tarkibi, biologiyasi, ekologik xususiyatlari haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida yer ekotizimlarining ajralmas bir qismi bo'lgan quruqlik mollyuskalarning kompleks o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston tekislik qismida quruqlik mollyuskalarining biotoplar bo'yicha taqsimlanishi va populyatsiyadagi zichligi Pazilov.A ning bir qator [1,2,3,4.]



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

tadqiqot ishlarida tadbiq qilinib, olingan natijalarga ko'ra Farg'ona vodiysida 12 tur, Chirchiq-Ohangaron vodiysida 14 tur, Mirzacho'l tekisligida va Zarafshon vodiysida 10 tadan, hamda Qarshi va Surxon-Sherabodda esa 11 turdagi quruqlik mollyuskalari uchrab, asosan quyidagi biotoplarda: bog' va poliz ekinlari, ariq bo'ylaridagi turli xil o'simliklar orasi, ochiq maydonlardagi o'simliklar orasi va daraxtlar ostidagi barg to'shamlarida yashab, ularning populyatsiyadagi zichligi turlicha bo'ladi. Masalan, *Cochlicopa nitens* ariq bo'ylaridagi o'tlar orasi, daryo bo'ylaridagi sernam ajriqzorlarda, bog'lardagi daraxtlar tagidagi o'simliklar orasida uchrab, Farg'ona vodiysida ariq bo'ylaridagi turli xil o'simliklar orasida 1 m² maydonda 7-8 ta uchrasa, Mirzacho'l tekisligida bu ko'rsatgich 10-12 ta, Samarqand viloyati Tayloq tumanining mevazor bog'laridagi o'tlar orasida esa 17-20 tagacha uchraydi.

Adabiyotlar taxlilidan kelib chiqib, Xorazm vohasida tarqalgan ***Cochlicopa* (*Coohlicopa*) *nitens* (*Gallenstein*, 1852)** quruqlik mollyuskasining tarqalish xususiyatlari va ekologiyasini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot materiallari 2020-2025-yillarda Xorazm vohasining turli biotoplaridan yig'ilgan ***Cochlicopa nitens*** quruqlik mollyuskasining namunalari hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz davomida o'rganilayotgan hududdan ***Cochlicopa* (*Coohlicopa*) *nitens*** quruqlik mollyuskasining taksonomik tarkibi quyidagicha:

COCHLICOPIDAE (Pilsbry, 1900) oilasi

***Cochlicopa* (Ferussac, 1821) avlodi**

***Cochlicopa* (*Coohlicopa*) *nitens* (*Gallenstein*, 1852).**

Material: 105 dona bo'lib, Yangiariq tumani: Qarmish, Kattabog' qishlog'i, o'zlashtirilmagan maydonlardagi ajriqzorlar orasi; Bog'ot tumani: Dexqonbozor, Nayman qishlog'i ariq bo'ylariga yaqin joylardagi o'tlar orasi


Konxologik belgilari asosan adabiyot [5,6.] ma'lumotlariga mos keladi. Biroq, quyidagi farqlari mavjud; chig'anoq uzunlashgan ovalsimon, o'ramlari bo'rtib chiqmagan, chig'anoq rangi och sarg'ish. Chig'anoq o'ramlari 4,5-5 ta bo'lib, uncha bo'rtib chiqmagan, uning oxirgi o'rami to'g'ri. Skulpturasi ingichka shulasimon chiziqlardan iborat, agar 25-30 marotaba yiriklashtirilsa spiralsimon chiziqlarni ko'rish mumkin (1-rasm).



1-pacm. *Cochlicopa nitens*

Chig‘anoq og‘zi ovalsimon, bir oz qiyshiq uning og‘iz chetlari orqaga qaytgan. Chig‘anoq o‘lchamlari: chig‘anoq balandligi 4.5- 5.45 mm, katta diametri 2-2,5 mm.

Reproduktiv organi tuzilishi (2-rasm). 5 ekz. Yangiariq tumani, Qarmish qishlog‘i.



2-rasm. *Cochlicopa nitens* ning reproduktiv organi tuzilishi. Ob-oqsil bez, Uq-urug‘ qabul qilgich, Dv-divertikul, Pe-penis, Ep-epifallus, A₁ -A₅ – penial appendiks qismlari

Oqsil bezida lateral kesilgan joyi yo‘q. Uzun urug‘ yo‘li epifallusning kengaygan qismiga apikal tarzda kelib tutushgan. Epifallus ikkita shpindil shakliga o‘xshab



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

kengaygan va bir-biridan ingichka qismi bilan ajralib turadi. Penisi ingichka silindirsimon. Penial appendiks, penis bilan epifallus qo‘shilgan joyga tutashgan. Penial appendiksining A₁ qismi qarib reduksiyaga uchragan, qolganlari yaxshi rivojlangan. Penis retraktori ingichka bo‘lib penisga epifallus asosi chegarasida kelib qo‘shilgan. Urug‘ qabul qilgich yo‘li kalta, divertikul esa undan ham kalta. Ekologiyasi. Ariq bo‘ylaridagi turli xil o‘tli o‘simliklar orasida yashab barcha balandlik mintaqalarida tarqalgan.

Tarqalishi. Yevropa, Kavkaz, Markaziy Osiyo.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, tadqiqot hududida **Cochlicopa nitens** quruqlik mollyuskasining asosan o‘zlashtirilmagan maydonlardagi ajriqzorlar orasi; ariq bo‘ylariga yaqin joylardagi o‘tlar orasida tarqalganligi aniqlandi. Mollyuskalar hayotida namlik asosiy omil hisoblanadi. Barcha mollyuskalar singari **Cochlicopa nitens** quruqlik mollyuskasi ham o‘rtacha namlikni xush ko‘ruvchi hayvonlar ekanligi to‘g‘risida xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pazilov A. Mirzacho‘l o‘lkasida tarqalgan quruqlik mollyuskasi Xeropicta candaharica turining hayot darajasi va xo‘jalik ahamiyati // GulDU profes-o‘qit. va talabalarining XXX an‘anaviy ilm-naz. anj. - Guliston, 1996. - B. 6-7.
2. Пазилов А. К истории малакологических исследований юго-западной части Киргизстана // Актуальные проб. науч. кад. XX1 в.: Межд.науч.конф. Тез.докл. - Сулюкта, 1999. - С. 213-214.
3. Пазилов А. Изменения фауны моллюсков в результате выпаса скота северной части Туркестанского хребта // Табий ландшафтларнинг экологик муаммолари // II – Республика илмий анжумани материаллари тыплами. - Қарши, 1999. - С. 117-118.
4. Пазилов А. Распределение наземных моллюсков по биотопам равнинной части Узбекистана // Вестник ГулГУ., 2004. - №2. - С.18-20.
5. Пазилов А., Азимов Д.А. Наземные моллюски (Gastropoda, Pulmonata) Узбекистана и сопредельных территорий. - Ташкент: Фан, 2003. - 315 с.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th August, 2025

-
6. Шилейко А.А. Наземные моллюски подотряда Pupillina фауны СССР (Gastropoda, Pulmonota, Geophila) Фауна СССР. Моллюски. - Л.: Наука Ленинградское отделение, 1984. Т.3. Вып. 3. - №130. - 399 с.